

Ochilov Alisher To'lis o'g'li
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
tarix fanlari doktori (DSc)

Xurramov Abror Rustam o'g'li
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

POYKENT VA VARAXSHANING ARXEOLGIK O'RGANILISHI (XX ASRNING 30-40 – YILLARI MISOLIDA)

Annotatsiya. Ushbu maqolada antik va ilk o'rta asrlarda Buxoro vohasining yirik shaharlari hisoblangan Poykent va Varaxsha arxeologik yodgorliklarida XX asrning 30-40-yillarida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar tarixi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Davlat Ermitaj muzeyi, arxeologik tadqiqotlar, moddiy madaniyat, Poykent, Varaxsha, shahriston, mudofaa devorlari.

ARCHAEOLOGICAL STUDY OF POYKENT AND VARAKHSHA (ON THE EXAMPLE OF 30-40 YEARS OF THE XX CENTURY)

Annotation. This article describes the history of archaeological research carried out in the 30s-40s of the 20th century at the archaeological monuments of Poykent and Varakhsha, which were considered major cities of the Bukhara oasis in the ancient and early medieval centuries.

Keywords: State Hermitage Museum, archaeological research, material culture, Poykent, Varakhsha, shahristan, defensive walls.

АРХЕОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПОЙКЕНТА И ВАРАХШИ (НА ПРИМЕРЕ 30-40-Х ГОДОВ XX ВЕКА)

Аннотация. В статье описывается история археологических исследований, проводившихся в 1930–1940-х годах на археологических памятниках Пойкент и Варахша, являвшихся крупными городами Бухарского оазиса в древности и раннем средневековье.

Ключевые слова: Государственный Эрмитаж, археологические исследования, материальная культура, Пайкент, Варахша, шахристан, оборонительные стены.

O'zbekiston madaniyati antik davrlardan boshlab yuksak darajaga ko'tarilganligi sababli[1], XX asrning 30-40 yillarida Markaziy kasaba uyushmasi, SSSR Fanlar akademiyasi, Moddiy madaniyat tarixi instituti (sobiq GAIMK), Sharq madaniyatlari muzeyi, Davlat Ermitaj muzeyi kabi tashkilotlarning O'zbekiston moddiy madaniyatini o'rganishda bevosita ishtiroki va tashkilotchilik yordami tobora kuchayib bordi [2].

XX asrning 30-40 yillarida Buxoro vohasi hududida antik va o'rta asrlar davrini o'rganish uchun turli xil yodgorliklarni o'z ichiga olgan sof arxeologik qazish ishlari rivojlana boshlandi.

Buxoro vohasidagi birinchi jiddiy arxeologik ishlar, A.Y.Yakubovskiy rahbarligida Rossiyaning Ermitaj muzeyi va Uzkomstaris tashkilotlari tomonidan 1934-yilda amalga oshirildi. Rossiya (Sankt-Peterburg)lik olim A.Y.Yakubovskiy Buxoroda arxeologik ekspeditsiya uyushtirib, vohaning shimoliy-sharqiy qismlarida joylashgan mudofaa istehkomlarini tekshirgan. Ekspeditsiya Buxorodan Samarqandgacha boradigan karvon yo'li buylab yurishni mo'ljallagan edi. Faoliyati davomida Buxoro vohasining shimoli - sharqiy qismi chekkalari tekshirildi. Qiziltepa, Shoxshoxidon, Abumuslim, Bo'rixona, Ganchxona, Hazora va Dengak singari Kampirdevol bo'ylab bunyod qilingan yodgorliklar o'rganildi. Qiziltepa hududida ilk marotaba qishloq makonlarini taftish qiladilar. Bu hududda joylashgan ko'hna shahar, qal'a, qo'rg'on, karvonsaroylar o'rni - Ganchtepa, Elmirezatepa, Abu Muslimtepa, Shahri Vayron, Qiziltepa, Oqsochtepa, Lavandoqtepa kabi yodgorliklar misolida o'rganadilar [3]. Ularning rejasi, qurilish tartibi aniqlanib, qog'ozga tushirildi, olib borgan tadqiqotlarning hisoboti esa 1940-yilda chop etilgan [4].

A.Y.Yakubovskiy ekspeditsiyasi to'g'risidagi hisobotida Kampirdevol bilan bog'liq muxim tarixiy muammolarga ham to'xtalgan. Jumladan, vohadagi o'troq xalq bilan dasht va cho'l mintaqasida ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholi o'rtasidagi munosabatlar masalasiga ham to'xtalgan edi. Yakubovskiy tekshirgan bu yodgorliklar ancha yuzaki ko'zdan kechirib chiqish tartibida, biror arxeologik qazishlarsiz amalga oshirilgan. Ekspeditsiya ishidagi yutuqlardan biri Hazora yaqinidagi

18 arxeologik yodgorlik Deggaron[5] masjidini aniqlab, uni Samoniy maqbarasidan yosh emas, degan xulosalar berildi [6]. A.Y.Yakubovskiy olib borgan tadqiqotlarning hisobotini 1940-yilda chop etdi [7].

Vohada A.Y.Yakubovskiy bilan bir davrda V.A.Shishkin ham o'z arxeologik tadqiqotlarini olib borgan. V.A.Shishkin Buxorodagi ilk tadqiqotlarini 1934-yilda Kampirak devorini arxeologik tadqiq qilishdan boshlaydi. Bunda u butun Buxoro vohasining atrofini aylanib chiqishga harakat qildi. Vohaning janubiy va sharqiy qismidagi devor qoldiqlarini ilmiy o'rganiladi. Yo'l-yo'lakay Oqsoch, Xoja Ajuvandi, Quyitepa kabi yodgorliklar ham ko'zdan kechirildi. Tadqiqotlar davomida Quyimozor qabristoni, vohaning Shimoliy va g'arbidagi Vardonze, Zandana, Varaxsha singari devor yaqinida yuzaga kelgan yodgorliklar aniklandi[8]. Bu tadqiqotlar Buxoro vohasi tarixi bo'yicha juda ko'plab malumotlarni bersada, tadqiqotlarning barchasi Buxoroning shahar atroflaridagi tadqiqotlar bo'lib, hali Buxoroning shahar qismida arxeologik tadqiqotlar bo'lmagan edi [9].

Keyinchalik V.A.Shishkinni eski irrigatsiya sohasi rivojlangan Buxoroning g'arbiy hududlariga majburan yuboriladi. Aslida, bu hududda eng katta va muhim ahamiyatga ega bo'lgan arxeologik yodgorliklar joylashgan edi.

Buxoro vohasining g'arbiy tomonidagi deyarli hamma yerlar qadimgi davrlarda to'liq o'zlashtirilgan yerlar bo'lib, faqat keyingi davrlarda Zarafshon daryosidagi suvni yuqori oqimlardayiq taqsimlanib ishlatilishi natijasida daryoning quyi oqimlari qum barxanlarining ostida qolib ketdi. Bu hududlarda izlanishlar olib borgan V.A.Shishkin hududni uchta qismga – janubiy, o'rta va shimoliy qismlarga bo'ladi, ammo bu bo'lingan hududlar bir-birlari bilan turli sug'orish tizimlari orqali bog'langan ekanligini aniqlangan [10]. U asosan bu hududda joylashgan antik davr va o'rta asrlarga oid yodgorliklarni o'rgandi.

V.A.Shishkin 1937-yildan Varaxsha arxeologik yodgorligini o'rganishni boshladi. U dastlab Varaxshadagi xonalarning shakliga va ular qancha balandlikka joylashganligiga e'tibor qaratadi. Bu qazishlar istiqbolli ekanligini Shishkin tushunadi va bu hududni komplekt joy deb e'tiborga oladi. Varaxshadagi xonalarning birini qazish davomida aniqlanishicha, bezak parchalaridan va turli xildagi shaklli chiroy bag'ishlaydigan bezaklar bilan xona devorlari suvalgan edi. Bu xususiyat sosoniylar davri uslubiga mansub deb etirof etilgan. Varaxsha Sug'diyonadagi juda ko'rkam va hashamatli bino, arxeologik yodgorlik hisoblanib arxeologik nuqta-i nazardan chuqur tadqiq qilinadi [11].

1937-yildan boshlab V. A. Shishkin Buxoro vohasida ekspeditsiya ishlarini olib borib, birinchi navbatda vohaning g'arbid joylashgan qadimiy sug'orish maydonini, xususan Varaxsha yodgorligini o'rganadi. Ushbu tadqiqot natijalarining aksariyati V.A.Shishkinning bosma nashrlarida o'z aksini topdi va unga munosib shon-sharaf keltiradi. V.A.Shishkin boshchiligidagi Varaxshada olib borilgan qazish ishlari davomida topilgan qadimiy tasviriy san'atning ajoyib namunalari jahon ilmiy jamoatchiligi e'tiborini jalb qilgan.

Buxoro vohasi bo'ylab tarqalgan ko'p sonli tepalik va arxeologik yodgorliklar orasida Varaxsha katta qiziqish uyg'otadi. Nisbatan kichkina shahar (maydoni taxminan 9-10 gektar) o'z davrida hukmdorlarning (buxorxudotlar) markazi bo'lib, hozirgi paytda jonsiz, suvsiz va qumli sahroning bir qismiga aylangan. 1937-yilda V.A.Shishkin tomonidan o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu hudud cho'l mintaqasi taxminan 500 kvadrat metr maydonni o'z ichiga oladi. Hududdan bir necha o'nlab katta va kichik tepaliklar, mustahkam aholi manzilgohlari, ko'p sonli turli xil shakllarga ega yo'nalishlar, sug'orish tizimlarining qoldiqlari topib o'rganilgan.

1937-yilda V. A. Shishkin Buxoro vohasining g'arbiy qismida saqlangan arxeologik materialning tabiati bilan ajralib turadigan 7 ta kichik tepa o'rganiladi. 1937, 1938 va 1939-yillarda Varaxsha yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar jarayonida qo'yilgan birinchi vazifalardan biri bu shaharning madaniy qatlamlari ketma-ketligini aniqlashga urinish bo'lgan. Buning uchun Varaxsha yodgorligining markazida shurf tushirilgan va materikgacha yetkazilgan. Qatlamlarning umumiy chuqurligi deyarli 10 metrni tashkil etgan, bu esa yodgorlikni qadimgi ekanligidan dalolat beradi. Shurfning 6-8 m chuqurlikdagi to'rtta madaniy qatlamlardan olingan materiallar Kushon podsholigi davri bilan belgilangan. Shu bilan birga, Varaxshaning janub tomonida joylashgan kichkina qal'a minorasining g'arbiy tomonida qazish ishlari olib boriladi. Bu yerda qazish ishlari boshlanishidan oldin turar-joyning janubiy chekkasiga yetib borgan bir qator qiyali tepaliklar o'rganilgan. Shamol va qum bilan tekislangan bu tepaliklarda, g'ishtdan qilingan qalin devorlar va bir nechta katta va kichik xonalar kuzatilgan.

V.A.Shishkin 1937-yilda olib borgan arxeologik qidiruv ishlari natijasida Varaxshada Buxoro vohasini arablargacha boshqargan Buxorxudotlar sulolasiga tegishli saroyning qoldiqlari degan xulosaga keladi. 1938 va 1939-yillarda olib borilgan ishlar V.A.Shishkinning taxminini to'liq tasdiqlaydi. Ko'p xonali katta bino (shaharning eng katta izi bo'lishi mumkin bo'lgan yagona katta bino) devoriy suratlar va ganch o'ymakorligi namunalari bilan bezatilgan edi [12]. Varaxsha Qizil zaldagi rasmlarda Qora kuchlar

bilan kurash, ov manzaralari, chavandoz filda o'tirib, yirtqich sher, gepard hamlasini qaytarayotgan suratlari mashhur bo'lsa. Sharqiy zaldagi ko'p syujetli rasmlardan asosiy saxnada ok kiyimda, qilich osgan holda taxtga o'tirgan podsho tasvirlari diqqatga sazovordir.

Ayni shu davrda, yani 1939-1940-yillarda vohaning g'arbiy mintaqasidagi Poykent shahrida ham arxeologik tadqiqotlar keng ko'lamda amalga oshirildi. Sababi, V.A.Shishkin bu yerda shu davrgacha bo'lgan tadqiqotlarni unchalik ham mukammal deb hisoblamaydi [13].

1939-yilda V.A.Shishkin rahbarligidagi Zarafshon arxeologik ekspeditsiyasi Poykentda o'z tadqiqotlarini boshlaydi. V.A.Shishkin va ekspeditsiya ishtirokchisi M.M.Dyakonov birinchi ishni aholi manzilgohini rejasini tuzishdan boshlashadi. Rejada Ark, ichki va tashqi shahriston, rabot qismi, mudofaa devorlari va burjlarning joylashgan o'rniga joy oladi.

Poykent shaharchasida shu yili Rossiyaning Ermitaj muzeyining ilmiy xodimi A.Y.Yakubovskiy ham arxeologik tadqiqotlarni amalga oshiradi. A.Y.Yakubovskiy Poykentni tuzilishiga qarab uch qismga bo'ladi. Shaharning bir nechta joyida shurf tashlanadi [14].

1939-yildagi ekspeditsiyaning asosiy vazifasi: 1) Paykentda katta qazish ishlarini tayyorlash uchun yana arxeologik qidiruv ishlarini olib borish, chunki bu aholi punkti qadimgi davrlardan XII asrgacha mavjud bo'lgan shaharning tarixi uchun katta qiziqish uyg'otgan. 2) Qirning ustida joylashgan 20 gektar maydonni egallagan qadimgi zamonlarda kuchli devor bilan o'ralgan shaharning qadimiy va markaziy qismini o'rganish. 3) Shahristonning shimoli-sharqiy qismida saqlanib qolgan kuhendiz (qal'a) qoldiqlarini o'rganish. Shahristonning janubi-g'arbdan shimoli-g'arbga cho'zilgan devori qoldiqlarini o'rganishdan iborat bo'lgan [15].

Keyingi yili yani 1940-yilda Davlat Ermitaji xodimi V.N.Kesayev rahbarligi ostida N.P.Kiparisovoy va S.K.Kabanovlar ishtirokida Poykentdayi tadqiqotlar davom etdi [16]. V.N.Kesayev taxmin qilganidek shahar markazida islomgacha bo'lgan davrga taaluqli ibodatxonani topildi. Ammo ishlar binoni bitta devorini ochish bilan chegaralandi [17]. Tadqiqotchilar Shahar atrofi haqida ham qiziqarli malumotlarni berib, Poykentning sharqidagi Badiosiyo manzilgohiga to'xtalib o'tganlar. Tadqiqotchilar arxeologik tadqiqotlari natijasida yig'ilgan malumotlar asosida Poykent sopollari, idishlarning qopqog'idagi rasmlar [18] va akuarius o'yinchoqlari [19] haqida bir qancha maqolalar tayyorlashdi.

Bu tadqiqotlar natijasida Poykent shahrining topografik xaritasini yaratildi. Xaritada shahar uch qismdan iborat yekanligi ko'rsatilgan. Bular: Ark qismi-maydoni 1ga, Shahriston I qismi-maydoni 13ga, Shahriston II qismi- maydoni 7ga.

XX asrning 30-40-yillarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Buxoro vohasining yirik shaharlari hisoblangan Poykent va Varaxshaning moddiy madaniyatiga doir katta ilmiy ma'lumotlarni taqdim eta oldi. Shaharlarning tarixiy topografiyasiga aniqlandi. Tadqiqotlarda qo'lga kiritilgan artefaktlar asosida buyerda kechgan tarixiy jarayonlarni tarixiy rekonstruksiya qilish imkoni paydo bo'ldi. Ikkinchi jahon urushi tufayli vohada qazishma ishlari vaqtincha to'xtadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мухаммаджонов А. Археология // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент, 2000. 434-435 бетлар.
2. Массон М. Е. Археологические исследования в Узбекистане. Наука в Узбекистане за 15 лет (1924-1939). Ташкент, 1939. С. 110-120.
3. Мирзаахмедов Ж.К., Одилов Ш., Пардаев М.Х., Максудов Р. Қизилтепа қадимиятидан лавҳалар. Тошкент, 2002. Б.22.
4. Якубовский А.Ю. Краткий полевой отчёт о работах Зерафшанской археологической экспедиции Эрмитажа. ИИМК в 1939 г – ТОВЭ. Т.П.Л.: 1940
5. Деггарон- "Козон қўювчи" деган маънони англатади.
6. Нильсен В.А. Мечеть Деггаран в селенни Хазара (Архитектурно-археологический очерк). «Труды ИИА АН УзССР». Выпуск 7. Ташкент, 1955. С.61.
7. Якубовский А.Ю. Краткий полевой отчёт о работах Зерафшанской археологической экспедиции Эрмитажа. ИИМК в 1939 г – ТОВЭ. Т.П.Л.: 1940
8. Шишкин В.А. Археологические работ. 1937 года в западной части Бухарского оазиса. Тошкент, 1940.
9. Шишкин. В.А. Варахша. М., 1963. С.16.
10. Шишкин В.А. Археологические работы 1937 года в западной части Бухарского оазиса. Ташкент, 1940. С.5.
11. Шишкин В.А. Археологические работк 1937 года в западной части Бухарского оазиса. Ташкент.: 1940. С.9-27.

12. Шишкин В. Л. Исследование городища Варахша и его окрестностей. Краткие сообщения о докладах и полевых исследованиях института истории материальной культуры. Вып. X. М.-Л. 1941. С.3-16.
13. Шишкин В.А. Варахша. М.,1963. С.102-103.
14. Якубовский А. Ю. Зарафшанская археологическая экспедиция 1939 г. Краткие сообщения о докладах и полевых исследованиях института истории материальной культуры. Вып. IV. Издательство Академик Наук СССР. М.-Л. 1940. С.51-66.
15. Якубовский А. Ю. Зарафшанская археологическая экспедиция 1939 г. Краткие сообщения о докладах и полевых исследованиях института истории материальной культуры. Вып. IV. Издательство Академик Наук СССР. М.-Л. 1940. С.48-52.
16. Кесаев В. Н. (К е с а т и Р.) Раскопки на Пайкенде в 1940 Г.//СГЭ. Л., 1948. № 4.
17. Р. К с с а т и [В. К е с а е в] . Раскопки на Пайкенде в 1940 г.—СГЭ, Л. IV. 1947. С. 26-29.
18. Д ъ я к о н о в М. М. Керамика Пайкенда//КСИИМК. Т. 28. М., 1949. С.89-93.
19. К и п а р и с о в а Н. П. Игрушка-водолей из Пайкенда//СА. М., 1949. № 10.. К и п а р и с о в а Н.П. Игрушка-водолей из Пайкенда.СА, X. 1948. стр. 310-316